

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA**

**O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**RUSIYZABON O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHDA**

**TA‘LIMY O‘YINLARNING AHAMIYATI**

**Bajardi: S.Niyozova**

**Tekshirdi: k.o‘q D.Bozorova**

**QARSHI 2012**

## **REJA.**

### **Ta'limiy o'yinlar haqida tushuncha**

### **Ta'limiy o'yinlardan foydalanish usullari**

### **Ta'limiy o'yinlarning nutq o'stirishdagi o'rni**

### **Xulosalar**

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

O'zbekistonda "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilingandan, ayniqsa, respublikamiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab o'zbek tili ta'limini takomillashtirish ishlari yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbek tilining mavqei, obro'-e'tibori ortib borayotgan bugungi davrda bu masala yanada dolzarblik kasb etdi. Chunki har bir kishi o'z fikrini to'g'ri, aniq, ravon, mayin, jozibali va ta'sirchan ifodalay olishi doimiy zarurat sanaladi. Qolaversa, har bir soha mutaxassisining o'zbek tilida ish yurita bilishi zaruriyatga aylandi. O'zbekistonda yashovchi turli millat vakillarining, ular qaysi sohada faoliyat olib borishidan qat'iy nazar, o'zbek tilida gapira va yoza olishiga ehtiyoj keskin oshdi.<sup>1</sup>

Har bir davlat, har bir millat birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida: "Yosh avlodni ma'naviy—axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi",- deb qayd etilgan.

Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktab o'quvchilarining davlat tilini darslarda, shuningdek, ixtiyoriy ravishda o'zbek tili mashg'ulotlari hamda turli ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlar jarayonida yanada faolroq, ichki intilish hamda ehtiyoj bilan o'rganishi ortib borayotgani muhim hodisadir. Xalqimizning uzoq o'tmishidan saqlanib qolgan boy milliy ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlarini, an'analari, ona yurtimizning bebaho me'moriy obidalari, madaniy yodgorliklarini targ'ib-tashviq etish, ulardan foydalanish asosida rusiyzabon o'quvchilarda vatanimiz bilan faxrlanish tuyg'ularini uyg'otish o'zbek tilini egallash orqali yanada tezroq va samaraliroq amalga oshadi.

O'quvchilarda adabiy til normalari va aloqa-aralashuv uchun xos nutq ko'nikmalarini o'zbek tili darslari jarayonidagina to'liq shakllantirib ulgurish qiyin. Buning uchun rusiyzabon o'quvchilarning o'zbekcha nutqini o'stirishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish asosida

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". Toshkent. "Ma'naviyat", 2008y.

mustahkamlashning ahamiyati katta. Prezidentimiz I.A. Karimov: “Demokratik jamiyatda har bir insonni erkin fikrlaydigan etib tarbiyalash kerak. Agar bolalar erkin fikrlashga o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak, ammo bilim o‘z yo‘lida, mustaqil fikrlash ham katta boylikdir” degan edilar kelajagimiz egalari bo‘lmish yosh avlod ta’lim-tarbiyasi bugunning eng dolzarb vazifasi ekanligini ta’kidlay turib. Lekin ushbu mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish va o‘tkazish, ayni paytda nutq rivojiga hissa qo‘shish maqsadida yangi-yangi uslubiy tavsiyalar, qo‘llanmalar yaratilishi, ilg‘or ish tajribalari to‘planib ommalashtirilishi uchun ehtiyoj sezilmoqda.

O‘zbek tilining mazmun-mohiyati, bir tomondan, bolalarning o‘zbekcha nutqini o‘stirishga qaratilsa, ikkinchidan, milliy qadriyatlarimiz, milliy ma’naviyatimiz, milliy istiqlol g‘oyalari bilan amaliy faoliyatida tanishish va uni o‘zlashtirishdan iboratdir. Shuning uchun o‘zbek tili darslariga, qo‘shimcha mashg‘ulotlar va tadbirlarga katta mas’uliyat bilan qaraladi.

O‘zbek tili ta’lim tizimida rusiyzabon o‘quvchilarning dars jarayonida shakllantirilgan o‘zbekcha nutqini o‘zbek tili mashg‘ulotlari orqali mustahkamlash masalalari hozirdagi dolzarb vazifalardan biridir.

### **Rusiyzabon o‘quvchilar nutqini o‘stirishdagi ta’limiy o‘yinlarning ahamiyati**

Ko‘hna va boy tarixga, noyob madaniyat va yuksak ma’rifatga ega o‘zbek xalqining an’ana va sharqona urf-odatlari qadimiydir. O‘zbek xalqining jahon xalqlari o‘rgansa arzigulik an’ana va milliy qadriyatlari bor. Milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo‘lgan mehr-oqibat, insonni ulug‘lash, tinch va osoyishta hayot, do‘stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etadi. Rus tilida ta’lim oluvchi o‘quvchilarning o‘zbek tilida so‘zlash, o‘z fikr va mulohazalarini erkin bayon etishga o‘rgatishda ta’limiy o‘yinlarning o‘rni katta. Tezkorlik, sezgirlik, tohqirlik, qat’iylik, o‘quv qiyinchiliklarni mustaqil yengish, boshlangan ishni nihoyasiga yetkazish kabi fazilatlarini tarkib tohtirish ta’limiy o‘yinlar orqali amalga oshiriladi. O‘zbek tili mashg‘ulotlari shunday qurilmog‘i lozimki, har bir o‘rganiladigan til hodisasi o‘quvchi etiborini o‘ziga qaratsin, uni ijodiy faoiyat ko‘rsanishga undasin, o‘zligini namoyish etish imkoniyatini yaratsin.

Chunki O'zbekistonda yashaydigan har bir boshqa millat vakili o'z oldiga murojaat qilib kelgan kishi bilan o'zbek tilida bemalol gaplasha olishi, erkin muloqotda bo'lib, uning fikrini tinglab tushunishi, anglay bilishi lozim. Shuning uchun rus maktablarida rusiyzabon o'quvchilarning o'zbekcha og'zaki dialogik nutqini o'stirishga, ularning nutq madaniyatini va uslubini shakllantirish va rivojlantirishga ikkinchi sinfdan boshlab alohida e'tibor beriladi.

Zero, rus guruhlarida o'tkaziladigan o'zbek tili darslarida xalimiz og'zaqi ijodiga mansub ertaq naql, afsona, rivoyat, aytishuv, ulan, yor-yor, askiya, maqol, topishmoq, olqish singari qator badiiy janrlardan o'rinli foydalanish talabalarning o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishi va og'zaki dialogik nutqining o'sishiga qatta yordam beradi. Shuningdek ular o'quvchilarning axloqiy qarashlarini shakllantirishga va boyitishga ham samarali ta'sir ko'rsatadi.

har bir rusiyzabon o'quvchi mahalliy aholi bilan o'zbek tilida bemalol suhbat olib bora bilishi; o'zbek tilida chop etilgan adabiyotlarni o'qib anglashi; suhbatoshini o'zbek tilida bergan axborotini eshitib va tushunib, olishi lozim.

Shuning uchun maktablarda til o'rgatish masalasiga juda jiddiy e'tibor beriladi. Ayniqsa, ularning og'zaki monologik va dialogik nutqini o'stirish juda muhim vazifalardan biri sanaladi. O'yinsiz torn ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'yin o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundur. O'yin boshlang'ich sinf o'quvchilarda malum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar - o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan usul. O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi.


O'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi .

O'yin orqali bolalar borliqni o'rganadi va dunyoni o'zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib o'yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. O'yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon qiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga ta'sir etish ehtiyoji paydo bo'ladi va shakllanadi.

Maktab yillarida o'yin shakllari yanada kengroq rivojlanadi. O'quvchilarning o'yin faoliyati juda ko'p soha olimlarining, ya'ni, faylasuflar, sotsiologlar, biologlar, san'atshunoslar, etnograflar, ayniqsa, pedagoglar va psixologlarni qiziqtiradi.

Psixologiyada bola psixikasining rivojlanishida o'yinning hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qaraladi. Faqat o'yindagina bolada shaxsning hamma tomonlari birlikda va o'zaro ta'sirda

shakllanadi.O'yingina bola psixikasida rivojlanishning yuqoriroq stadiyasiga o'tish uchun muhim zamin yaratadi.



### **1.1.Ta'limiy o'yinlar haqida tushuncha**

O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi (1989 yil 21 oktyabr),«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunlarida (29 avgust 1997 yil), shuningdek, O'zbek tili Davlat ta'lim standartida barcha ta'lim-tarbiya muassasalarida, shu jumladan, uning asosiy bo'g'ini hisoblangan o'rta umumta'lim maktablarida O'zbek tili o'qitilishini tubdan yaxshilashni, ta'limning eng samarali metod, vosita va usullarini qo'llashni, muhimi o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi (subyekt)ga aylantirish talab etiladi.O'zbek tili mashg'ulotlari shunday qurilmog'i lozimki, har bir o'rganiladigan til hodisasi o'quvchi e'tiborini o'ziga qaratsin, uni ijodiy faoliyat ko'rsatishga undasin, o'zligini namoyish etish imkoniyatini yaratsin. Bunga ta'limning noan'anaviy usullaridan

unumli foydalanish, ayniqsa, ta'limiy o'yinlarni qo'llash orqali erishiladi. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarni ijodiy faoliyat ko'rsatishga, o'rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini anglab, mustaqil fikrlashga va xulosalar chiqarishga, har bir o'quvchiga o'zligini namoyish etish, o'z fikr va mulohazalarini erkin bayon etib, o'z nuqtai nazarini himoya qilishga keng imkoniyat yaratadi. Tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, qat'iylik, o'quv qiyinchiliklarini mustaqil engish, boshlangan ishni nihoyasiga etkazish kabi fazilatlarni tarkib toptirish ta'limiy o'yinlar orqali amalga oshiriladi. Maktablarda olib borilgan kuzatishlar bizni shunday xulosaga olib keladiki, O'zbek tili mashg'ulotlarida ta'limiy o'yinlarni qo'llash muayyan izchillik kasb etmagan. O'qituvchilar amaliyotda o'quvchilar so'z boyligini oshirishga, so'zni to'g'ri va o'rinli ishlatish malakalarini shakllantirishga, nutq sharoitidan kelib chiqib, fikrni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalashga xizmat qiladigan o'yinlardan etarli foydalanmayapti. Ayrim o'qituvchilarimizning darslarida onda-sonda tashkil etilayotgan o'yinlar, asosan, o'rganilgan til hodisalarini qayta xotiralash xarakterida bo'lib, o'quvchilarni izlanishga, ijodiy faoliyat ko'rsatishga undamaydi. Aksariyat hollarda o'yinlar o'rganilayotgan til hodisalarining asosiy mazmunidan ajralgan bo'lib, u darsdan ko'zlangan maqsadni amalga oshirishga etarli xizmat kilmaydi. O'zbek tili o'qituvchilari o'yin - topshiriqlarni tuzishda, ularni o'tkazishda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu hol, shubhasiz, mazkur muammoning ilmiy nuqtai nazardan etarli o'rganilmaganligi, ilmiy adabiyotlarda bu borada aniq tavsiyalar berilmaganligiga xam bog'liq. O'zbek tili o'qitish nazariyasi va amaliyoiyga oid mavjud pedagogik adabiyotlarda ta'limiy o'yinlardan foydalanish borasida A.G'ulomov, K.Qosimova, R.Abdulohatova, R.Inog'omova, R.Kayumova, K.Shukrullayev va M.Sobirovalar ancha foydali fikr-mulohazalar bayon etishgan. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda o'zbek tili o'qitish jarayonida ta'limiy o'yinlardan foydalanishning samarali yo'llari va vositalarni yoritishni asosiy maqsad qilib belgilab oldik. O'zbek tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, so'zdan nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga oid o'yin-topshiriqlardan keng foydalanilsa, katta mavzular va bo'limlar o'rganilgandan keyin taqrorlash mashg'ulotlari «Topqirlar bellashuvi» asosida o'tkazilsa, O'zbek tili darslarida qayta xotiralash xarakteridagi tonshiriqlar bilan qisman ijodiy va ijodiy xarakterdagi tonshiriqlar o'rtasida mutanosiblik vujudga keltirilsa, tashkil etiladigan o'yin-topshiriqlarning biri ikkinchisini to'ldirishga qaratilsa, O'zbek tili mashg'ulotlarining samaradorlik darajasi yuqori bo'ladi.

## **Ta'limiy o'yinlardan foydalanish usullari**

Ta'lim boshqa tillarda olib borilayotgan maktablarda o'quvchilar o'zbek tilini o'rganishga ikkinchi sinfda ilk qadam qo'yadilar. Bunda qiyinchilik shundaki, birinchi sinfda ona tilida kirill alifbosida endigina o'qish va yozishni o'rgangan bola butunlay yangi bo'lgan lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini o'zlashtirishi bilan birga o'zbek tilida bu alifboda o'qish va yozishni o'rganishi kerak bo'ladi. Shuning uchun bu sinfda o'qitish jarayoni nihoyatda murakkab bo'lib, o'qituvchidan yuksak metodik mahorat talab qiladi.

Nutq tovushlari, tovushning yozuvdagi ifodasi - harf, o'zbek alifbosi va uning ahamiyati, unlilar imlosi, u-o', i-u, a-i va h.k. tovush juftlari bilan farqlanuvchi so'zlar ustida ishlash, undosh tovushlar va ularning imlosi, qo'shimcha qo'shilganda tovushlarda sodir bo'ladigan ayrim o'zgarishlar, p-b, t-d, s-z, v-f, k-g, k-z, v-f, ch-sh kabi tovush juftlari bilan farqlanuvchi so'zlarning talaffuzi, imlosi va qo'llanishi ustida ishlash, yonma-yon kelgan bir xil unlili va undoshli so'zlar imlosi, talaffuzi va qo'llanishi ustida ishlash, urg'u ustida ishlash, bo'g'in va uning o'ziga xos xususiyatlari ustida ishlash kabi ma'lumotlar silsilasini o'z ichiga oladi. Maktab o'quvchilarini bu ma'lumotlar silsilasi bilan qurollantiridan ko'zlanadigan asosiy maqsad nafaqat ularni o'zbek tilining tovush sistemasi bilan tanishtirish, balki Davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan asosiy maqsad — tez va to'g'ri o'qish malakalarini rivojlantirish, so'z boyligini oshirish, talaffuz va imloviy me'yorlar bilan qurollantirish, she'riy va nasriy asarlarni ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishdan iboratdir. Ta'limiy o'yiniar vositasida o'quvchilarda bilimga qiziqishni uyg'otish uning qiziqishlariga tayanib tashkil etilsa samarali bo'ladi. Bunday hollarda bolada doim yangiliklarni bilishga ishtiyoq uyg'onadi, bilimga qiziqish uyg'onadi. Bilimga qiziqishni muntazam rivojlanirish va mustahkamlash kichik maktab o'quvchilarning o'qishga ijobiy munosabatlarini tarbiyalaydi o'zlashtirish darajasini oshiradi. Bilishga qiziqish kichik maktab o'quvchisini izlanishga o'rgatadi, u doim har xil savollarga javobni qidirishga o'rganadi. O'quvchining izlanuvchanlik faoliyati unda emotsional ko'tarinkilik, muvaffaqiyatdan quvonish hissini tarbiyalaydi. Bilishga qiziqish faqat ta'lim jarayoni natijasiga ijobiy ta'sir qilib qolmay balki tafakkur, idrok, xotira, diqqat kabi psixik jarayonlarning faol rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Bilishga qiziqish - bu o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshiruvchi motivlardan biridir. Uning ta'siri juda kuchli bo'ladi. Bilishga qiziqishni uyg'otish hatto bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ham samarali ishlashiga yordam beradi.

To'g'ri tashkil etilgan pedagogik jarayonda o'quvchilar faoliyati, tarbiyaviy faoliyat tizimli va muntazam tashkil etilsa bilishga qiziqish o'quvchi shaxsining asosiy sifatlaridan biriga aylanadi va uning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Bilimga qiziqish ta'lim jarayonining kuchli vositasiga aylanadi. Abu Rayhon Beruniy o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtirish muhim vazifa ekanligini uqtirib, «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida «Maqsad gapni cho'zish emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan-fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va u kishi har bir narsada o'ziga yarasha lazzat bor deyilganidek ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi», - degan edi.

O'quvchining bilish faoliyatini faollashtirmasdan turib uni bilimga qiziqtirish mumkin emas. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'quvchini bilimga doimiy qiziqtirish, uning o'qish motivini rivojlantirish, tarbiyalovchi ta'limning eng muhim vositasidir. Shunday qilib bilishga qiziqish o'quvchi shaxsidagi bor imkoniyatlarning ro'yobga chiqishiga ham ko'maklashadi.

Bilishga qiziqish shaxsning boshqa sifatleri kabi o'qish-o'rganish jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

O'quvchilarning bilishga qiziquvi ikki asosiy yo'l bilan tashkil etiladi. Birinchisi, o'quv materialining o'zi o'quvchilarda bilimga qiziqishni paydo qiladi. Chunki o'rganilmagan yangi narsa insonlar tomonidan qiziqish bilan o'rganiladi. Ikkinchi tomondan o'quvchilarning bilish faoliyatini qiziqarli tashkil etish yo'li bilan bilimga qiziqtirish mumkin.

## Ta'limiy o'yinlarning nutq o'stirishdagi o'rni

O'quvchilar uchun yangi bo'lgan, hali tushunilmagan material ularda hayratlanish hissini uyg'otadi. Hayratlanish esa o'quv materialini bilishga qiziqish uyg'otadigan eng muhim omil. Biror bir narsadan hayratlangan odam unga qarashga, undan yangilikni bilib olishga intiladi. Bu esa insonni dunyo haqidagi yangi bilimlarni egallab olishiga yordam beradi. Yangi bilimlarni qiziqish bilan egallashda albatta oldin o'rganilgan bilimlarga murojaat qilinadi. Shuning uchun ham o'quvchilarni bilishga qiziqishini tarbiyalashda o'rganilgan bilimlardan yangilarini aniqlashga o'rgatish lozim.

O'quvchilarni fanning yangi yutuqlari bilan tanishtirish o'quv dasturlari doirasini kengaytirish ularni ilmiy, ijodiy izlanishlar doirasi bilan tanishtirish o'quvchilarning bilishga qiziqishlarini oshiradi.

Hamma o'quv materiallari ham o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lavermaydi. Bunday hollarda bolalarni ta'lim jarayoniga qiziqishini oshirishning birdan bir yo'li o'yinlardan foydalanish va ularni tashkil etishdir. O'quvchilarda o'qishga ishtiyoqni oshirish uchun ularni ta'limga qiziqtirish lozim. Buning uchun esa o'quvchi ta'lim jarayonidan qiziqarli tomonlarni topishi va bu jarayon o'z ichiga o'quvchini qiziqtiradigan materiallarni olishi lozim. Buning yo'li ta'lim jarayoniga ta'limiy o'yinlarni kiritishdir. Buni o'rganishda o'quvchilar jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklar bir jihatdan o'zbek tili tovush sistemasining o'ziga xos murakkabligida bo'lsa, ikkinchi jihatdan fonetikaning ayni vaqtda orfoepiya, grafika va orfografiya bilan chambarchas aloqadorligi bilan bog'liqdir. O'quvchilar fonetikadan muayyan bir tovushni o'rganar ekan, ayni vaqtda tovushlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishadilar, o'z so'z boyliklarini oshirib boradilar, talaffuz va imloviy me'yorlar ustida ishlaydilar, so'zdan to'g'ri foydalanish malakalarini egallab boradilar. Bu murakkab jarayonni bir muncha osonlashtirish ko'p jihatdan ta'limiy o'yinlardan unumli foydalanish bilan bog'liqdir. O'quvchilar o'yin orqali yuqorida tilga olingan malakalarni puxtaroq egallaydilar va ko'zda tutilgan bo'limni o'rganishning samaradorligi ham yuqori bo'ladi. O'zbek tilining tovush sistemasini o'rganida o'zbek tili o'quvchisi oldida turgan muhim vazifalarning biri — o'quvchilarning so'z boyligini muttasil oshirib borishdir. Modomiki shunday ekan, fonetika, orfoepiya, grafika va orfografiyadan tashkil etiladigan o'yinlar, avvalo, o'quvchilarda so'z ehtiyojini yuzaga keltirishi, so'zga chanqoqlik hissini tarbiyalashi zarur. Ana shu maqsadda tovushdosh so'zlar topishni talab etadigan o'yinlar ancha samarali natijalar beradi.

Tovudosh soʻzlar bir-biridan atigi bitt tovush bilan farqdanuvchi soʻzlar boʻlib, oʻquvchi ayni bir tovushni oʻzgartirish orqali yangi soʻzlar hosil qiladi va ularning maʼnolari ustida ishlaydi.

Masalan:

bir - ber- bur - bor- bo'r

бир - дир- кир - мир- кир - мир- тир - сир –пир-қир

dor - bor - zor- kor - nor - tor - xor - qor

kabi soʻzlar tovudosh boʻlib, ular bitta tovush bilan farqlanayotgan soʻzlardir. Unli va undosh tovushlar ustida ishlayotganda «**Tovushdosh soʻzlar top**», «**Berilgan kataklarni tez toʻldir**», «**Tovush juftlari bilan farqlanuvchi soʻzlar roʻyxatini davom etdir**» kabi oʻyinlardan foydalanish mumkin. Tilga olinayotgan topshiriqlarning musobaqa tarzida tashkil etilishi uni qiziqarli oʻyinga aylantiradi va gʻoliblarni aniqlab, ularni ragʻbatlantirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Quyida taʼlimiy oʻyinlardan namunalar keltiramiz: Berilgan soʻzlarga (mas, kul, mul va h.k.) tovushdosh soʻzlar top oʻyini. Oʻquvchilarga berilgan soʻzlarning birinchi, ikkinchi va uchinchi tovushlarini oʻzgartirib tovushdosh soʻzlar (mas, koʻl-kul, qul-qil, qol-hol va h.k.) hosil qilish topshiriladi. Topshiriqni birinchi boʻlib bexato bajargan oʻquvchilar oʻyin gʻolibi sanaladi.

### «Sirli kataklarni toʻldir» o'yini

Oʻquvchilarga kataklarni toʻldirib, tovushdosh soʻzlar hosil qilish vazifa qilib topshiriladi. Masalan, «toy» soʻzini «soy» soʻzigacha davom ettirish talab etiladi. Namuna: toy, loy, moy, voy, oy, choy, yoy, soy.

Tavsiya etilgan soʻzlar:

1. bosh, .....(tosh, osh, qosh, yosh.)

2. bol, .....(pol, tol, sol, qol, mol, hol, xol.)

### «So'z juftlarini davom ettir» o'yini

O'quvchilarga san'at-sanat, qal'a-qala, ta'na-tana, sa'va-sava singari so'zlar berilib, shunday so'z juftlari tuzishni davom ettirish va ularning ma'nosini sharhlash topshiriladi. Berilgan so'z juftlarini belgilangan miqdorga (mas, 15-20 ta so'z juft) etkazgan o'quvchi g'olib, deb topiladi. Bu o'yin o'quvchilarni guruhlarga ajratib, sinf taxtasida ham bajartirilishi mumkin. Qatordagi har bir o'quvchi doskaga chiqib, bitta so'z jufti yozadi va bo'rni ikkinchi o'quvchiga tutqazadi. O'yin shu tartibda davom ettiriladi. Birinchi bo'g'inida ham, ikkinchi bo'g'inida ham bir xil unli qo'llaniladigan so'zlarni (mas, tugun, butun, uzun, quzgun, burgut, uygun, tuyg'un, mushuk, ustun, uygur, uchun, uzum, tushum va h.k.) topish va so'zlar ro'yxatini muayyan miqdorga etkazis topshiriladi. Belgilangan miqdorda eng ko'p so'z topa olgan o'quvchilar o'yin golibi sanaladi.

### «Ikkala bo'g'inida bir xil unli bo'lgan so'zlar ro'yxatini tuzing» o'yini

### «Domino» o'yini

Bu o'yinni quyidagicha o'tkazish mumkin: bir o'quvchi so'z aytadi, shu so'z qaysi harf bilan tugasa, shu harf bilan boshlangan so'zni boshqa o'quvchi aytishi kerak, bu o'yin shu tarzda davom ettiriladi.

Namuna: ishla — adolatli - insofli - ilojisiz - zamindor — rostgo'y - yilnoma - aqlli — irodali — izlanuvchanlik — kasbdosh — shaharlik — kuzgi — istiqbol.

### «Nazoratchi harf» o'yini.

O'qituvchi belgilangan harf asosida o'quvchilarga so'z yozishni taklif etadi. Masalan, o'qituvchi: «sh» harfi birinchi turibdi, demak «sh» harfi so'z boshida kelishiga namunalar yozing», deb aytadi. Ishni bajarish uchun aniq 2-3 minut vaqt belgilanadi. O'quvchilar yozadilar: shodlik, shahar, shovqin, shalola, sharshara, shu'la, shuhrat, sharafli, shabnam va h.k. Belgilangan vaqtda ko'p so'z yozgan o'quvchi o'yin g'olibi hisoblavadi.

**«Doirada berilgan harflar asosida so'z  
tuz»o'yini.**

O'quvchilarga doira ichida 6 ta harf taqdim etiladi. O'quvchilar shuharflar ishtirokida so'zlar hosil qiladilar. Belgilangan vaqtda ko'p so'z hosil qilgan o'quvchilar yoki guruh g'olib sanaladi. Bu o'yinni, ayniqsa, unli va undosh tovushlar o'rganilgandan keyin o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar o'quvchilar e'tiboriga **a, u, b, f, s, t** harflari berilgan bo'lsa, ular bu harflarni qatnashtirib **asab, bu, tuz, buta, aft, saf, bas, tub** kabi so'zlar hosil qiladilar.

**«Tovush juftlari bilan har bir so'zga  
ma'nodosh so'z top!».**

Bu o'yinni tashkil qilish uchun o'quvchilarga juft tovushlar bilan so'zlar hosil qilish (Masalan, **b-p: bob-bop, t-d: tub-tup va h.k.**) topshiriladi, so'ngra bu so'zlarning har biriga ma'nodoshlar topish vazifasi yuklatiladi. O'quvchilar guruhlariga ajratilgan bo'lsa, har bir guruh muayyan so'zning barcha ma'nodoshlarini aniqlashadi.

Masalan, bob-bop: bob-bo'lim-qism;

bop- loyiq- yarashiqli- mos;

tur (ot) -dur: tur- nav;

dur- marvarid-javohir.

So'zning barcha ma'nodoshlarini to'g'ri toptan o'quvchilar guruhi o'yin g'olibi sanaladi.

**“So'z ustuni” o'yini**

O'qituvchi sinf taxtasi (d oska)ga biror so'zni yozadi va o'quvchilarga uning har bir harfi bilan boshlanuvchi so'zlar ustuni hosil qilishni taklif qiladi. O'quvchilar har to'g'ri so'z uchun belgilangan ballni oladilar, har bir xato uchun ball olib tashlanadi. Yoki bu topshiriqni kartochka tarzida mustaqil ish qilib topshirish ham mumkin, bu paytda o'quvchilar topshiriqni bajarib, o'qituvchiga topshiradilar. Vaqtni hisobga olib ma'lum daqiqada nechta so'z yozishni o'qituvchi bolalarga e'lon qiladi va tartibni buzmay ulardan kartochkani terib oladi, tekshirib baholaydi.

<b>O</b>	<b>N</b>	<b>A</b>
<b>obod</b>	<b>Navo</b>	<b>aql</b>
<b>ohang</b>	<b>nizom</b>	<b>asar</b>
<b>ozod</b>	<b>nazar</b>	<b>alla</b>
<b>odam</b>	<b>nodir</b>	<b>a'lo</b>
<b>odil</b>	<b>nurli</b>	<b>ahd</b>

**«Keyingi bo'g'inni top» o'yini.**

Berilgan bo'g'inlar ishtirokida so'z tuzish tushuntiriladi va qaysi o'quvchi ko'p so'z tuza olsa, o'yin g'olibi bo'ladi. Masalan, bo, bo', ju, ni, lo, sa, mu...

1. bola, bobo, bozor, bodom.
2. bo'yin, bo'ri, bo'liq, bo'zchi.
3. jo'ja, jo'ra, jo'xori, jo'na.
4. nima, nizom, nigoh, nido, nihol.
5. lola, loyiq, lochin, lobar, loviya, lozim.
6. savob, sarob, saxovat, sadoqat, sahifa...

Prezidentimiz I.A.Karimov: «Demokratik jamiyatda har bir insonni erkin fikrlaydigan etib tarbiyalash kerak. Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi

muqarrar. Albatta, bilim kerak, ammo bilim o'z yo'liga, mustaqil fikrlash ham katta boylikdir», degan edilar kelajagimiz egalari bo'lmish yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bugunning eng dolzarb vazifasi ekanligini ta'kidlay turib.

Bu mas'uliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o'qituvchisi, ayniqsa, boshlan g'ich sinflarda ta'lim beruvchilardan o'z kasbiy mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, il g'or pedagogik texnologiyalarning izchil metodlari mohiyatini t o'liq anglashlari va uni o'z darslarida mohirona foydalanishlarini taqozo etadi.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol q o'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Biz, bo'lajak o'qituvchilar, darslarda o'quvchilarni erkin ishtirokchiga aylantira olsakkina ijobiy natijaga erishamiz.

**XULOSA**

Rusiyzabon o'quvchilar nutqini o'stirishdagi ta'limiy o'yinlarning ahamiyati mavzusida bajargan referatimizda quyidagi xulosalarga keldik.

Birinchidan, o'quvchilarda o'zbek tilida o'zaro erkin muloqot qila olish, o'z fikrini o'zbek tili qonun-qoidalariga muvofiq savodli, mantiqan izchil ifodalash uchun zarur bo'lgan so'z boyligi, nutqiy malaka va ko'nikmalar hosil qilishga harakat qildik.

Ikkinchidan, o'zbek tili ta'limidan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni nutqiy faoliyatga tayyorlash ekan, so'z boyligini oshirish birinchi galdagi vazifa sanaladi. Shu maqsadda biz 2,3,4 – sinflar “O'zbek tili kitobi”dagi matnlarni tahlil qildik.

Uchinchidan, mashqlarni tahlil etish asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati o'stiriladi. Ta'limiy o'yinlar asosida darslarni tashkil etish ta'lim samaradorligini oshiradi. Yangi pedagogik texnologiya, avvalo, shaxs tarbiyasiga qaratilgan bo'lib, uning ma'naviy, ma'rifiy tomondan to'laqonli ta'minlashini isbotlashga harakat qildik.

To'rtinchidan, krossvordlar, rebuslar, test topshiriqlaridan foydalanish bola xotirasini mustahkamlashini, ongini o'stirishini misollar bilan isbotlashga urindik..

Beshinchidan, O'zbek tili darslarini tashkil etishda ta'limiy o'yin texnologiyasidan to'g'ri va oqilona foydalanish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanishini ko'rsatib berishga harakat qildik.

Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashning eng to'g'ri va samarali metodidir. O'yin mashg'ulotlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanadi va shundagina o'quvchilar o'yinning samarali yechimlarini topa biladilar, o'zlari va atrofdagilarga talabchanlik namoyon qiladilar. O'yinning ma'lum bir tizim va metodika asosida tashkil etilishigina o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”. Toshkent. “Ma’naviyat”, 2008y.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: 1997, 20-29-b.
3. Tolipova R. 2-sinf uchun “O‘zbek tili” darsligi.-T., “O‘qituvchi”, 2008.
4. Tolipova R. 3-sinf uchun “O‘zbek tili” darsligi.-T., “O‘qituvchi”, 2008.
5. Rafiyev A., Muhammadjonova G. 4-sinf uchun “O‘zbek tili” darsligi.-T., “O‘qituvchi”, 2009.
6. Qo‘chqortoyev Ch. Rafiyev A. Kundalik muloqot so‘zlashgich. –T., “O‘zbekiston”, 1994.
7. Ona tili. Umumiy ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi“ Ta’lim taraqqiyoti” axborotnomasining 1-maxsus soni. T. “Sharq” 1999 y.
8. G‘afforova.T.Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy texnologiyalar. Qarshi, 2009.
- 9.Bobomurodova. A. Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin-topshiriqlardan foydalanish.Toshkent. “Musiqqa” nashriyoti,-2009.